

KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA TALQINLARI

O'rinova Sayyora Xolmirzayevna

Namangan davlat pedagogika instituti, "Filologiya" kafedrası, 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan konsept tushunchasining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo'nalishlari doirasida konseptning mohiyati, uning strukturaviy komponentlari hamda til va madaniyat tizimidagi o'rni yoritiladi. Turli tilshunos olimlarning konsept haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, konseptning mental, semantik va madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, konsept inson tafakkurida shakllanadigan va til orqali ifodalanadigan murakkab mental birlik bo'lib, u milliy madaniyat, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, mental birlik, madaniyat, semantika.*

Аннотация. *В данной статье анализируется понятие концепта, широко используемое в современной лингвистике. В рамках когнитивной лингвистики и лингвокультурологии рассматриваются сущность концепта, его структурные компоненты и роль в системе языка и культуры. Проводится сравнительный анализ научных взглядов различных лингвистов на природу концепта. В результате исследования установлено, что концепт представляет собой сложное ментальное образование, формирующееся в сознании человека и отражающее культурный опыт, исторические традиции и ценности общества.*

Ключевые слова: *концепт, концептология, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, ментальная единица, культура.*

Annotation. *This article analyzes the concept of "concept", which is widely used in modern linguistics. Within the framework of cognitive linguistics and linguoculturology, the essence of the concept, its structural components and its role in the system of language and culture are examined. The scientific views of various linguists on the nature of the concept are comparatively analyzed. The results of the study show that the concept is a complex mental unit formed in human consciousness and reflecting cultural experience, historical traditions and social values.*

Keywords: *concept, cognitive linguistics, linguoculturology, mental unit, culture.*

KIRISH

Lingvokulturologiya tilshunoslik fanining alohida sohasi hisoblanadi. Insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar, tillarning o'zaro munosabati, til hamda madaniyati, milliy tilning

o'ziga xos ko'rinishi kabi masalalarni o'rta qo'yadi. Bu jarayon esa lingvokulturologiya fanining paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslik fanida yangi ilmiy yondashuvlar shakllandi. Dunyo tilshunosligida matnga avvallari sintaktik-struktur jihatdan yondashilgan bo'lsa, yangi davr XXI asrdan boshlab lingvokulturologik, lingvokognitologik, sotsiolingvistik hamda psixolingvistik tamoyillari yordamida tahlil qilish kuchaydi. Xususan insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanadigan lingvokognitologiya paydo bo'lish sanasi 1956-yil deb e'tirof etiladi. Kognitiv tilshunoslikda kognitiv atamasining izohi inglizcha "cognitive – bilishga oid" so'z bilan bog'liqdir. Kognitiv lingvistika insonning kognitiv faoliyati bilan chambarchas, uzviy bog'liq sanaladi. Konsept, ssenariy, kognitatsiya, freym atamaları kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalaridir. Ular orasida konsept atamasi lingvokulturologiya, lingvokognitologiya hamda adabiyotshunoslik sohalarida keng qo'llaniladi. Lekin izohi esa o'zaro farqlanadi. Konsept lotin tilidagi "conseptus" – tushuncha so'zining kalkasidir. Konsept atamasi rus tilshunosligida XX asrning birinchi choragida rus faylasufi va olimi S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Ushbu atama o'tgan asrnini 1980- yillariga qadar tushuncha so'ziga ma'nodosh sifatida qo'llanilgan. Hozirgi kunda esa uning ma'nosi ancha kengayganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistik va lingvokulturologiya kabi yo'nalishlarning rivojlanishi tilni inson tafakkuri va madaniyati bilan bog'liq holda o'rganish imkonini yaratdi. Shu jarayonda tilshunoslikda muhim ilmiy kategoriyalardan biri sifatida konsept tushunchasi shakllandi.

Konsept inson tafakkurida shakllanadigan murakkab mental birlik bo'lib, u orqali inson atrof-muhitni idrok etadi, tasniflaydi va baholaydi. Tilshunos olim Yu.S. Stepanov konseptni inson ongida mujassamlashgan madaniyat shakli sifatida ta'riflaydi¹. Uning fikricha, konsept madaniyatning asosiy elementlarini ifodalovchi semantik birlikdir.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslik, semantika va lingvokulturologiya fanlarida keng qo'llaniladi. Bu tushuncha inson tafakkuri, til tizimi va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim nazariy vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi konsept tushunchasining nazariy mohiyatini o'rganish hamda uning zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tavsifiy metod – konsept tushunchasining nazariy asoslarini yoritishda qo'llanildi.

Qiyosiy metod – turli tilshunos olimlarning konsept haqidagi qarashlarini taqqoslashda ishlatildi.

Kognitiv tahlil metodi – konseptning inson tafakkuri bilan bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi.

Lingvokulturologik yondashuv – konseptning til va madaniyat tizimidagi o'rnini tahlil qilishda qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida kognitiv tilshunoslik, semantika va lingvokulturologiya sohasidagi ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama

Konsept tushunchasining nazariy asoslari. Tilshunoslikda konsept tushunchasiga turli olimlar tomonidan turlicha ta'rif berilgan. Masalan, rus tilshunosi D.S. Lixachyov konseptni xalqning madaniy tajribasini aks ettiruvchi tafakkur birligi sifatida ta'riflaydi².

Kognitiv tilshunos A. Wierzbicka esa konseptni inson ongida mavjud bo'lgan semantik model sifatida talqin qiladi³. Unga ko'ra, konseptlar insonning borliqni tushunish va tasniflash jarayonini aks ettiradi.

Shuningdek, V.I. Karasik konseptni madaniy jihatdan ahamiyatli mental birlik sifatida ta'riflaydi⁴.

Konseptning strukturaviy komponentlari. Ko'plab tadqiqotchilar konsept murakkab struktura ekanligini ta'kidlaydilar. Odatda konsept quyidagi komponentlardan iborat bo'ladi:

Kognitiv komponent – bilimlar va tasavvurlar tizimi. Lisoniy olam manzarasida inson ongining olam haqidagi tasavvuri, ya'ni bilimi.

Emotsional komponent – insonning muayyan tushunchaga nisbatan hissiy munosabati.

Madaniy komponent – milliy qadriyatlar va an'analar bilan bog'liq jihatlar. Bu komponentlar o'zaro bog'liq holda konseptning umumiy semantik tuzilishini shakllantiradi.

Lingvokulturologiyada konsept. Lingvokulturologiya fanida konsept til va madaniyat o'rtasidagi aloqani ifodalovchi muhim kategoriya hisoblanadi. N.D. Arutyunova konseptlar insonning dunyo haqidagi tasavvurini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi⁵. Har bir millat o'ziga xos konseptlar tizimiga ega. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida mehmondo'stlik, hurmat, sabr, or-nomus, vijdon kabi konseptlar muhim madaniy qadriyatlarni ifodalaydi.

Bu konseptlar til birliklari, frazeologizmlar, maqollar va badiiy matnlar orqali namoyon bo'ladi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolarga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallariga tayanadigan bo'lsak, masalan, Rossiyaning tilshunoslik sohasida bu borada ko'plab imiy tadqiqotlar olib borilganligi ko'rishimiz mumkin. Hattoki, keying davrdagi yoqlangan dissertatsiyalarning juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, konsept zamonaviy tilshunoslikda muhim nazariy kategoriya hisoblanadi. U inson tafakkurida shakllanadigan va til orqali ifodalanadigan murakkab mental birlikdir. Turli olimlarning qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, konsept nafaqat semantik birlik, balki madaniy va kognitiv fenomen sifatida ham qaraladi. Lingvokulturologiyada konsept milliy madaniyat va mentalitetni aks ettiruvchi muhim birlik hisoblanadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, matn tahlil, kommunikativ strategiyalar va til madaniyatiga oid bo'lgan konseptlarning lingvokulturologik, kognitiv va stilistik nuqtai nazardan chuqur tadqiq qilishga turtki bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stepanov Yu.S. Konstanty: slovar russkoy kultury. – Moskva: Akademicheskiy proyekt, 2004.
2. Lixachyov D.S. Kontseptosfera russkogo yazyka. – Moskva, 1997.
3. Wierzbicka A. Semantics, Culture and Cognition. – Oxford: Oxford University Press, 1992.
4. Karasik V.I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. – Volgograd, 2002.
5. Arutyunova N.D. Yazyk i mir cheloveka. – Moskva, 1999.
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
8. Kubryakova E.S. Language and Cognition. – Moscow, 2004.